

KUZGI ARPANING BIOLOGIK XUSUSIYATLARI VA XALQ XO'JALIGIDAGI AHAMIYATI

Janazaqova Dilbarxon Djumaboyevna

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti "Dehqonchilik va o'rmon melioratsiyasi" kafedrası assistenti

ARTICLE INFO.

Tayanch so'zlar:

Arpa, kuzgi arpa, biologik xususiyatlari, yorug'likka talabi, namlik, don ozuqa moddalar, xosildorlik, nav, boshqoq.

Annotatsiya

Kuzgi arpaning doni oziq-ovqat, yem-xashak va sanoatning ayrim tarmoqlari uchun xom ashyo bo'lib xizmat qiladi. Kuzgi arpa yaxshi parvarish qilinsa, xosildorlik jixatdan kuzgi bug'doydan qolishmaydi.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2022 LWAB.

Bugungi kunda dunyoda arpa yetishtirishda resurstejamkor texnologiyalarni qo'llash hisobiga sifatli va mo'l hosil olishga katta ahamiyat berilmoqda. Arpa yetishtirish texnologiyasini takomillashtirish, yangi navlarni yaratilishi hamda ularni ishlab chiqarishga joriy etish natijasida so'nggi 16 yilda ekilish maydoni qisqarsada, hosildorlik oshishi hisobiga yalpi don yetishtirish o'zgarmagan. Kuzgi arpa keng miqyosda foydalaniladigan g'alla don ekinlaridan biridir. Uning doni oziq-ovqat, yem-xashak va sanoatning ayrim tarmoqlari uchun xom ashyo bo'lib xizmat qiladi. Arpa doni tarkibida oqsilda tengi yo'q aminokislotalarning barcha turlari, shu jumladan, juda kamyob hisoblangan lizin va triptofan mavjud. Arpa donidan yorma tayyorlanadi. Bu yorma insoniyatning eng muxim oziq-ovqatlaridan biri bo'lib xisoblanadi. Arpa doni tarkibida oksil kam bo'lganligi sababli u pivo tayyorlash sanoatining yagona xom ashyosi hisoblanadi. Kuzgi arpa yaxshi parvarish qilinsa, hosildorlik jixatdan kuzgi bug'doydan qolishmaydi. Arpa unini 15-20 % miqdorda bug'doy uniga qo'shib non tayyorlash mumkin.

ARPA. (*Hordeum*)-g'alladoshlar oilasiga mansub bir va ko'p yillik o'tsimon o'simliklar turkumi. Evrosiyo va Amerikada 30 ga yaqin turi ma'lum. Dehqonchilikda arpa O'rta Osiyo (Turkmaniston jan.)da mil. av. 12-10 ming yilliqdan ekib kelinadi. Vatani Old Osiyo. Ekma arpa (*N. sativum*) jahondagi ko'pgina mamlakatlarda yetishtiriladi. Biologik xususiyatlariga ko'ra, arpa bahori va kuzgi turlarga bo'linadi. Arpa ildiz to'plami popuksimon: asosiy ildiz haydalma qatlamda rivojlanadi. Poyasi poxolpoya, 4-6 ta bo'g'imli, bo'yi 30-35 sm dan 130-134 sm gacha. Bargi barg plastinkasi, barg qini, tilcha va quloqchalardan iborat, boshqa g'alla o'simliklarining bargidan ko'ra kengroq. To'pguli boshqoq. Mevasi pardali yoki yalang'och don, rangi sarg'ish, och jigarrang va och kulrang. 1000 ta doni vazni 20-60 g. Bahori arpaning vegetatsiya davri 55-110 sutka, kuzgisiniki 180-210 sutka (nav xususiyatlari va ekiladigan hududga qarab). Arpa eng tezpishar don ekinidir. Arpa o'zidan changlanuvchi o'simlik, guli yopiq. Maysalari 4-5 °S da unib chiqadi, o'sib rivojlanib borishi uchun

qulay harorat 22 °S. Arpa issiqqa chidamli o'simlik, havo quruqligini yaxshi ko'taradi. Xalq xo'jaligida arpadan xilma-xil maqsadlarda (oziq-ovqat, yem, pivo sanoati uchun xom ashyo) foydalaniladi. Donida 13% suv, 2% oqsil, 64,6% uglevodlar, 5,5% klechatka, 2,1% yog', 2,8% kul moddasi bor. 1 kg arpa doni 1,2 ozuqa birligiga teng.

Kuzgi arpaning qishga chidamliligi kuzgi bug'doy va kuzgi javdarnikidan past. Shuning uchun uning ekilish mintaqalari yem-xashak yetishtirishni ko'paytirishda katta ahamiyatga ega. Sug'oriladigan yerlarda kuzgi arpa beda uchun qoplama ekin sifatida ham ekiladi. Arpa juda qadimiy ekin. Arxeologik qazilmalar arpa dastlabki neolit davridan boshlab ekilib kelinganligidan dalolat beradi. Uning asosiy ekin maydonlari Markaziy Osiyo, Kavkazorti, Ukraina, Ruminiyaning va Qozog'istonning janubi, yevropa mamlakatlarida joylashgan. O'zbekistonda ko'p yillar kuzgi va baxorgi arpa ekin maydonlari deyarli teng bo'lgan, xozirda sug'oriladigan yerlarda asosan kuzgi arpa keng tarqalgan, baxorgi arpa ko'pincha qoplama ekin sifatida beda bilan ekiladi. Kuzgi arpa bahorgi arpaga nisbatan ikki baravar serhosil, ammo uning qishga chidamsizligi bahorgi arpa o'rniga ham kuzgi arpa ekish imkoniyatini cheklaydi. Kuzgi arpa kuzgi bug'doy, javdar, tritikalega nisbatan erta, O'zbekiston sharoitida jazirama issiqlar. garmsel boshlanguncha yetiladi. Shuning uchun tuproq va havo qurg'oqchiligidan kam zararlanadi. Kuzgi, qishki, bahorgi namliklardan yaxshi foydalanadi. Arpa doni chorva xayvonlari uchun to'yimli yem xisoblanadi. Uning 100 kg donida 128 ozuqa birligi bo'ladi. Arpa somonining ozuqaviy qiymati yuqori, somonida 33 ozuqa birligi mavjud.

Kuzgi arpa urug'lari 1-2°S xaroratda una boshlaydi. Urug'larning unib chiqishi uchun qulay xarorat 15-20°S. Tuplanish bosqichida 12°S sovuqqa bardosh beradi. Qor qoplami bo'lmaganda, o'simliklar tuplana olishga ulgurmaganda 7-8°S sovuq xam kuzgi arpa uchun xavfli. O'zbekistonda biologik kuzgi, bahorgi xamda duvarak navlar kuzda ekiladi. Ammo qishga chidamli turi biologik kuzgi va duvarak navlar hisoblanadi. Baxorgi arpa navlarining qishga chidamliligi past. Sug'oriladigan yerlarda qor tushguncha yaxshi tuplanib ildiz otgan o'simliklar O'zbekiston sharoitida yaxshi qishlab chiqadi.

Arpa qurg'oqchilikka chidamli ekin. Suvni eng ko'p miqdorda naychalash bosqichidan boshloqlash bosqichigacha talab qiladi. Kuzgi arpaga agar shu davrda suv yetishmasa, hosildorligi keskin kamayib ketadi. Kuzgi arpa kuzgi bug'doyga nisbatan qurg'oqchilikka, issiqqa chidamli. Kuzgi arpa sug'orishga talabchan. O'sish davrida tuproqda cheklangan dala nam sig'imi (CHDNS) 70 % dan kam bo'lmaganda yuqori xosil beradi. Kuzgi arpa uzun kun o'simligi. Qisqa yorug'lik kunida uning boshloq tortishi kechikib, kech yetiladi. Yarovizatsiya davri 0-2°S, 40-45 kun. Kuzgi arpa kuzgi bug'doyga nisbatan O'zbekiston sharoitida 10-15 kun erta yetiladi. O'zbekiston sharoitida kuzgi arpa may oyining birinchi yarmidan (Surxondaryoda) boshlab iyun oyining birinchi o'n kunligiga qadar pishib yetiladi. Bu xususiyati sug'oriladigan yerlarda ikki marta hosil yetishtirishga imkon beradi.

Kuzgi arpa kuzgi bug'doyga nisbatan tuproq sho'riga ancha chidamli. Uni sizot suvlari yuza joylashgan tuproqlarda ham ekish mumkin. Kuzgi arpa unumdor, g'ovak, donador tuproqlarda yuqori xosil beradi. Mexanik tarkibi og'ir, loy, botqoqlashgan, juda sho'rlangan yerlar kuzgi arpa uchun yaroqsiz. Tuproq muxiti PH 6-7 bo'lishi arpa uchun maqbul.

Donli ekinlar ichida arpa ekini oziq moddalarini erta, naychalash davridan boshlab talab qiladi. Bu davrda arpa 2/3 kaliy va 46 % fosfor, gullash davrida esa 85 % oziq modda talab qiladi. O'rtacha 1 ts don uchun azot 1-1,5 kg, fosfor 0,6-1 kg, kaliy 0,4 kg sarf bo'ladi. Arpa azotli o'g'itlarga juda talabchan bo'ladi. Azotli o'g'it belgilangan me'yorda berilishi xosildorlikning oshishiga va oqsilni 0,3-0,6 % ga ortishiga olib keladi. Bu esa pivo tayyorlashda ishlatiladigan arpalar uchun juda muxim. Pivo sanoatida ishlatiladigan arpaning sifatini oshirishda fosforli va kaliyli o'g'itlarning ahamiyati katta.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mamatqulov A. Bahorgi arpa duragaylarida mahsuldor tuplanish belgisining irsiylanishi /O'zbekistonda g'allachilikning yaratilgan ilmiy asoslari va uni rivojlantirish istiqbollari. Xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiyasi ilmiy maqolalar to'plami. -Jizzax «Sangzor», 2013. -B. 67-69.

2. Xalilov N.X. Kuzgi arpa hosildorligiga ekish muddatlarining ta'siri // O'zbekistonda g'allachilikning yaratilgan ilmiy asoslari va uni rivojlantirish istiqbollari. Xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiyasi ilmiy maqolalar to'plami. -Jizzax «Sangzor», 2013. –B.310-311.
3. Mamatqulov T. Arpa kasalliklari seleksiyasining natijalari va muammolari // G'allachilikning ilmiy-amaliy yechimlari. Ilmiy to'plam. –Jizzax, 2007. -B. 53-56.
4. Hasanov B., Mamanov T., Tufliyev N., Amirqulov O. O'zbekistonning janubiy mintaqalarida arpaning dog'lanish kasalliklari va ularga qarshi kurash choralari // O'zbekistonda g'allachilikning yaratilgan ilmiy asoslari va uni rivojlantirish istiqbollari. Xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiyasi ilmiy maqolalar to'plami. -Jizzax «Sangzor», 2013. –B.211-213.